


## 2020-2021 yillar I -yarim yillik yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari qo'mitasining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy MA'LUMOT

T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020 y I-yarim yillik amalda	2021 y I-yarim yillik amalda	O'tgan yilga nisbatan(%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	1693,3	3708,1	219
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	718,9	1249,6	173,8
		km	59,3	62,4	105,2
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	90,2	180,2	201,1
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash	mlrd.so'm	626,7	1236,3	197
		km	1268,2	11400	899
4	Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	806,6	1042	129
		km	1368	1585,5	116
5	Yangi ishjoylarini yaratish	kishi	11774	856	7.2

Qo'mita tizimidagi korxonalar va tashkilotlar 2020 yil I-yarim yillikda Investitsiyadasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **1249,6 mlrd. so'mlik** qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2019 yilning xuddi shu davriga nisbatan **173,8 foiz**ni tashkilotadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobilyo'llarida **180,2 mlrd. so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilga nisbatan **201,1 foiz**ga teng.

### 2020-2021 yillar I-yarim yillik yakuniga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining taqqoslama diagrammasi



2021 yil I-yarim yillik yakuni bo'yicha Respublikamizdagi **11400 km** mintaqaviy avtomobil yo'llari ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **347,7 km**, Andijonda **1075,1 km**, Buxoroda **835,1 km**, Jizzaxda **634,8 km**, Qashqadaryoda **820,8 km**, Navoiyda **488,2 km**, Namanganda **1231,5 km**, Samarqandda **1149,6 km**, Surxandaryoda **1066,3 km**, Sirdaryoda **350,8 km**

Toshkent viloyatida **1134,5 km**, Farg'onada **1571,8 km**, Xorazmda **693,8 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlashishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **899 foizni** tashkil etadi.

### 2020 yil I-yarim yillik yakuniga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (xududlar kesimidagi diagramma)

2021 yil I-yarim yillikda Respublikabo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **1042 kmdan iborat qismi**da joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2020 yil I-yarim yillikka qaraganda **129 foizni** tashkil etadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2021 yil I-yarim yilligida **856ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2020 yilning mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda 7.2 foizni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2021 yil I-yarim yillikda umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **3708,1 mlrd. so'm**dan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **219 foizni** tashkil etganligini ko'rsatadi.